

XALQARO POCHTA VA KURYERLIK JO'NATMALARIDAGI ELEKTRON TIJORATNING SAMARALI BOJXONA NAZORATINI TASHKIL ETISH

Lutfullayev Shukurullo Quدراتillayevich.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida elektron tijoratning samarali bojxona nazoratini tashkil etish mexanizmlari tahlil qilingan. Muallif zamonaviy elektron tijoratning xususiyatlari va uning bojxona organlari faoliyatiga ta'sirini muhokama qiladi, shuningdek, bojxona nazoratining samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: xalqaro pochta, kuryerlik jo'natmalari, elektron tijorat, bojxona nazorati, samaradorlik, zamonaviy texnologiyalar, tovarlarni nazorat qilish.

Hozirgi kunda ilm-fan texnika va texnologiyalarini keng miqyosda o'sib borishi, hamda ommaviy tarmoqlarning rivojlanishi bilan bir qatorda, insoniyat talablari ham o'zgarib, bozorga bo'lgan takliflar ancha avj olmoqda. Shuningdek, uyda o'tirgan holda, xalqaro bozorlardan savdo qilish imkoniyati takomillashib borayotgan davrda, elektron tijorat yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, global chakana savdo bozori hozirda yiliga 5.8 trillion AQSH dollardan oshib, to'rt yil ichida 2 barobarga ko'payganligi buni yaqqol misolidir. Ushbu onlayn tranzaksiya larning aksariyati chegaralar-aro amalga oshirilgani bois, ko'plab kichik va o'rta korxonalar hamda tadbirkorlik subyektlari uchun global qiymat zanjirlarida o'zlarining ishtirokini kengaytirishda taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanish orqali xorij bozorlariga chiqish, xalqaro bozorga kirish orqali esa eksportni rivojlantirish kabi imkoniyatlar yaratiladi. Xususan, Amazon hisobotiga ko'ra, Amazondagi tushumlar birgina 2023 – yilda 525 milliard dollardan ko'p bo'lganligi va 146 mamlakatga eksport qilganligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, koronavirus pandemiyasidan keyingi davrda dunyo aholisining o'zaro munosabatlarida elektron ma'lumot almashish va elektron tijoratni yo'lga qo'yish hamda undan foydalanish kabi talablarning ortishiga olib keldi. Bugungi kunda, transchegaraviy elektron tijoratni amalga oshirish davlatlar iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Xususan, har bir fuqaro internet orqali tovarlarga buyurtma berish, kuryerlik xizmatlari orqali qo'ldan-qo'lga yetkazish xizmatlaridan ichki va xalqaro miqyosda foydalanishi tobora ommalashmoqda. Xorijiy davlatlardagi xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning tovarlarini fuqarolar tomonidan buyurtma asosida olib kelinishida jo'natmalarning hajmi ortgani sari, ularni importi bilan shug'ullanuvchi xalqaro va milliy kuryerlik tashkilotlari soni oshib, turli hajmdagi

jo'natmalarning mavjudligi sababli, ularni bojxona nazoratidan o'tkazish qiyinlashib bormoqda.

Xalqaro pochta va kuryerlik xizmatlari bojxona organlari transchegaraviy elektron tijoratdagi zanjirning bir bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu tizim juda murakkab va haligacha yetarlicha tartibga solinmagan hamda bojxona chegarasi orqali kirib kelayotgan jo'natmalarni bojxona nazoratidan o'tkazish jarayonlarida ularni saralash va taqsimlash uchun zarur infratuzilma shakllantirilmagan, provayderlik yoki kuryerlik tashkilotlari faoliyatining aniq va yagona reglamenti mavjud emas. Bundan tashqari, transchegaraviy elektron tijoratni amalga oshirish vaqtida bojxona qonunchiligi buzilgan taqdirda kuryer, provayder yoki buyurtmachining javobgarligi masalalari to'liq hal etilmaganligi sababli, qonun buzilishini sodir etgan subyektlar o'z faoliyatlarini javobgarlikni his etmagan holda davom ettirishmoqda. Bu esa transchegaraviy elektron tijoratni bojxona organlari tomonidan boshqarish protseduralarini shaffof va samarador emasligini bildiradi.

Ushbu soha yangi bo'lganligi sababli uni tartibga solish o'ziga xos mexanizm joriy etishni talab qilmoqda va bu borada avvalo huquqiy bazani takomillashtirish zarur hisoblanadi. Shunga ko'ra so'nggi yillarda mazkur sohada bir qator konseptual hujjatlar qabul qilindi. Xususan, "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" prezident farmoni ning 25-maqsadida, raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish va 8-maqсадida, Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish keltirib o'tilgan, unda iqtisodiyotning bir bo'g'imi hisoblangan bojxona masalalarida ham keng amaliy ishlar olib borilishi, davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, xususan, bojxona nazorati va bojxona to'lovlari tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish masalalariga e'tibor qaratib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich Toshkentda bojxona rasmiylashtiruv markaziga tashrif buyurganlarida "Bu sharoitlar, natijalar, albatta, odamni quvontiradi. Lekin raqamlashtirish shunday jarayonki, bir joyda cheklanib qolmaydi. Sohada qilingan ishlardan ko'ra, qilinishi kerak bo'lgan vazifalar ko'p. Shuning uchun qulayliklarni muntazam oshirib borish zarur". Muhtaram Prezidentimiz "tizim faoliyatiga tadbirkorlar baho berishi kerak" deb ta'kidladilar va import tarkibining tahlili asosida mahalliy tadbirkorlarga taklif berish, bojxona hududida qayta ishlashni kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Xodimlarning moddiy-ijtimoiy sharoitlarini yaxshilab, tizimni korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish vazifasini qo'ydilar. Elektron tijoratda ham tovarlarning xalqaro almashinuvi pochta va kuryerlik jo'natmalari orqali individual tarzda fuqarolarga

jo'natiladi. Ammo vositachi sifatida pochta va kuryerlik provayderlari va operatorlari bojxona organlariga bojxona nazoratidan o'tkazish uchun jo'natmalarni taqdim qiladi. Muhtaram Prezidentimiz ham tadbirkorlar bilan ochiq muloqot va muzokara o'tkazgan holda tizimni rivojlantirishni ta'kidlab o'tdilar.

Bugungi kunda jahon miqyosida faqat yalqov odamgina yetkazib berish xizmatlaridan foydalanmaydi, chunki bu yuqori sifatli va arzon xizmatdir. Biz internet orqali istagan mahsulotimizni dunyoning bir chekkasidan qulay narxda topganimizda, kuryerlik xizmati bizga pullarni tejashga, mazkur xaridni kuzatish va uni olish sanasini aniq bilish imkoniga ega bo'lganimizda asabimizni saqlashga yordam beradi.

Pochta va kuryerlik xizmati tarixi uzoq tarix qa'riga borib taqaladi va bilim orttirish uchun g'oyat muhim hisoblanadi. U to'qnashuvlarga to'la, insoniyatning umumiy texnologik taraqqiyotini aks ettiradi va har bir kishi kamida bir marta bo'lsa ham foydalangan eng yirik yetkazib berish xizmatlari bilan bevosita bog'liq.

Bizning davrimizga qadar, turli xalqlarda pochta xizmatlari va maktublarni uzoq masofalarga eltish usullari qanday shakllanganligi haqida juda qiziqarli ma'lumotlar yetib kelgan. Buni insoniyat xotirasidagi yaxlit madaniyat deb hisoblash mumkin. Ushbu jangdan so'ng xabarlarini estafeta orqali otliq choparlardan juda tezlik bilan uzatishga asoslangan rivojlangan pochta tizimi shakllangan deb tarix otasi Gerodot o'z asarlarida aks ettiradi.

Misol uchun, Pekin arxeologlari tomonidan Xunan provinsiyasining Lie shahridagi qadimgi konlaridan birida qazish ishlarini olib borish oqibatida, Sin sulolasi hukmronligi davrida (miloddan avvalgi 221-207-yillar) bambuk taxtachilarida "Tez yetkazib berish" degan ma'noni anglatuvchi ikkita iyerogliflari va qolganlarida soliq "to'lovlar" va "jazolar"ga aloqador xitoy iyerogliflar mavjud bo'lgan. Qadimgi Misrda Marafon shahridagi jangda (miloddan avvalgi 490-yil, 12-sentyabr) forslar ustidan yunon g'alabasi haqidagi xabarni Afinaga yetkazib berish natijasida toliqish va qon yo'qotishdan vafot etgan yunon jangchisi Fidippid esa pochta xizmatini tarixdagi ilk namoyondalaridan biridir (1-rasm).


Chingizxon tomonidan puxta yo'lga qo'yilgan kuryerlik xizmati tizimi (nihoyatda tezkor otliqlardan iborat) tashkil etilgan. Imperiya hududida ko'plab o'ralar (pochta stansiyalari) barpo etilgan va barcha uzoq yo'llar muayyan qismlarga ajratilgan. Amerikaga keladigan bo'lsak, bu yerda pochta va kuryerlik xizmatlari bozori (Temir yo'l aloqasidan tashqari) taxminan bir vaqtning o'zida shakllana boshladi. Amerikada asrning eng g'ayrioddiy kuryerlik kompaniyasi sifatida, o'z faoliyatida chopqir mustanglar va chidamli hindu ponilari xizmatidan foydalanilganligi sababli "Pony Express" deb nomlangan kichik xususiy firma faoliyat ko'rsatgan.

Yangi davr tarixida esa XIII asrda Rossiyada yozma xatlar yetkazish bo'yicha birinchi xizmat – otida xat tashish paydo bo'lgan (2-rasm). Maxsus tayinlangan va saralab olingan shaxslar xabarchilar va aholini tashish bilan shug'ullangan (3-rasm).

Oradan bir asr o'tib, bu tizim takomillashtirilgan: jo'natuvchining ismi va familiyasi, yozishmalari aniq yetkazib berish sanasi ko'rsatila boshlangan. 1710-yilda Pyotr I tashabbusi bilan Sankt-Peterburg – Moskva yo'nalishi tashkil etildi, bu esa harbiy-dala kuryerlik xizmati timsoliga aylandi.

Hisobot davrida import qilingan xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari vazni bo'yicha solishtirma jadvali (tn.)

Yillar	Xalqaro pochta jo'natmalari vazni (tn.)	Kuryerlik jo'natmalari vazni (tn.)	Jami
2022-yil	237,59	1 136,19	1 373,77
2023-yil	185,30	1 360,31	1 545,61
2024-yil	245,34	2 040,43	2 285,76
Farqi 2023/2024	60,03	680,12	740,15



Hozirgi kunda elektron tijorat dunyodagi yirik onlayn savdo palatasi singari qaralib, mutaxassislar uning imkoniyatlarini yuqori baholamoqdalar. Bir tomondan, ommaviy axborot vositalarida va taniqli nashriyotlarda elektron tijorat tovarlarni internet orqali sotib olish, sotish deya ta'riflanayotgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin, elektron tijorat "biznesni elektron shaklda olib borish" deb ta'riflanadi, bu nafaqat internetdan foydalanishni o'z ichiga olib qolmasdan hozirgi global munozaralarda elektron tijorat o'z qoidalari va o'ziga xos jihatlariga ega bo'lgan turli xil elektron munosabatlarni tavsiflash uchun umumiy atama sifatida ishlatiladi. Umumiy holda bu yerda "elektron" va "tijorat" so'zlarini tashkil etuvchilari bugungi kun hisobi bilan qanday ma'no berishini bilib olish lozim. O'zbekiston Respublikasi "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida elektron tijoratga shunday ta'rif beriladi: "Axborot tizimlaridan foydalangan holda tuziladigan shartnomaga muvofiq amalga

oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) savdosi elektron tijoratdir” Elektron tijorat tushunchasi ostida tovar buyurtmasini qabul qilish, to‘lovni amalga oshirish, tovar (xizmat bajarilishi) etkazib berilishidagi boshqaruvda qatnashuvni o‘z ichiga oluvchi operatsiyalarning yopiq siklli texnologiyasi tushuniladi. Ushbu amallar (operatsiyalar) axborot texnologiyalari va elektron vositalar yordamida o‘tkazilib, egalik qilish yoki ishlatish huquqini bir yuridik yoki jismoniy shaxsdan ikkinchisiga o‘tishi ta’minlanadi.

Elektron savdolar eksport va import jarayonida qo‘llanilganda ba’zi davlatlarda elektron hujjatni qonuniy tan olish yoki olmaslik qonunda belgilanmagan. Shuning uchun globalizatsiya jarayonida qonun jihatdan uyg‘unlikka erishish uchun davlatlar elektron tijoratning qonuniy asosini ishlab chiqishlari kerak. Boshqa tomondan esa, qonuniy asosi ishlab chiqilmagan elektron oldi-sotdi jarayonlarida tomonlar orasida kelishmovchilikni yechib beradigan me’yoriy hujjatlarning yo‘q ekanligi. Bu esa bevosita va bilvosita bojxona nazoratidan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan pochta va kuryerlik jo‘natmalarining mamlakatga kirishi va chiqishi bilan bog‘liqdir.



Yuqoridagi masalalarni inobatga olgan holda mamlakatimizda elektron va raqamli bojxonani tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirib, ularni takomillashtirib borishni vaziyat taqozo etmoqda. Bojxona ma’uriyatchiligida ham prezidentimizning qarorlari, farmonlari asosida raqamli bojxonani rivojlantirishga qaratilgan yo‘nalishlar belgilab berilgan bo‘lib, hozirgi kunda hududiy tuzilmalarda, TIF postlarda va chegara bojxona postlarida bir qancha avtomatlashtirilgan dasturlardan keng foydalanib kelinmoqda. Bu orqali, o‘z navbatida TIF ishtirokchilariga, avtomobil va jismoniy shaxslarning chegaradagi harakatlarini osonlashtirishga erishildi. Ammo, tez o‘zgarib borayotgan zamonda ayrim sohadagi bojxona xizmatlarini raqamlashtirishga bo‘lgan harakatlar anchayin ortda qolayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ulardan biri xalqaro pochta va kuryerlik jo‘natmalarida elektron tijoratning bojxona protseduralarini zamonaviy bosqichga olib chiqishdir.

Yuboriladigan jo'natmalarga ishlov berish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi hududida ular jo'natuvchilardan bojxona nazorati zonalarida qabul qilib olinishida boshlanadi.


Pochta aloqasi operatorlari va provayderlari xodimlari tomonidan bojxona organi xodimi bilan birgalikda jo'natmalarning kuzatuv hujjatlari oldindan tekshirib chiqiladi va jo'natish taqiqlangan buyumlar egasiga qaytarish uchun ajratiladi. Ushbu jo'natmalarning kuzatuv hujjatlarida qaytarish sabablari ko'rsatilgan holda tegishli xizmatlar tomonidan belgi qo'yiladi.

Eksport qiluvchilar O'zbekiston Respublikasining banklaridagi o'z hisob varaqlariga to'liq to'lov kelib tushgandan keyin va ushbu ma'lumotlarni Tashqi savdo operatsiyalarning yagona elektron axborot tizimiga kiritgandan so'ng eksport shartnomalari tuzmasdan, internet-do'konlari orqali tovarlar, ishlar va xizmatlarni eksport qilish huquqiga ega bo'ladi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Bunda xalqaro to'lov tizimi orqali to'langan holda Internet butunjahon axborot tarmog'i orqali bitta invoys bo'yicha qiymati 5 000 AQSH dollarigacha bo'lgan tovar (xizmat)larni eksport qilishda, xaridor bilan yozma shartnoma tuzish talab etilmaydi hamda barcha yuridik va jismoniy shaxslarga Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga axborot kiritmasdan hamda bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirmasdan tovarlar eksportini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

EKSPORT

Pochta va kuryerlik jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish tartibi



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2019 //http://www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 2016-yil /http://www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 611-II-son Qonuni// http://www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 9-apreldagi "Pochta aloqasi to'g'risida"gi 777-son Qonuni// http://www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni// http://www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5414-sonli Farmoni //http://www.lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-122-sonli Farmoni// http://www.lex.uz
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 5-iyundagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-sonli Farmoni// http://www.lex.uz.